



– Qushlar ham bizga o'xshaydi-da. Ular orasida ham Firdavs singari mehnatkashlari, men bilan sen kabi dangasalari ham bo'ladi-da, – Aziz ukasi xafa bo'lmasligi uchun ataylab o'zini ham qo'shib aytdi. – Agar biz hozir sovuqda don topishga qiynalayotgan qushlarga yordam bersak, do'stlashsak, balki chug'urchuqlar ham yomon odatlarini tashlar. Buvam yomonni ham yaxshi gap bilan yaxshi qilish mumkin, deydilar-ku. Keyin qara, anavi daraxtlar shoxidagi olma, xurmolarni buvam qishda qushlar yeydi, deb ataylab qoldirganlar.

– Bo'pti, yuring unda, qushlarga in yasaymiz, ichiga don sepib daraxtlarimizga osib qo'yamiz, – G'ani kutilmaganda osmonga qarab baqirdi. – Qushlarjon, qo'rqmasdan kelib donlayvering, biz sizga do'stmiz.

Aka-uka buvalarining yoniga yugurishdi... Ikkita in yasab hovliga chiqishsa, hovli to'la qushlar, maza qilib donlashyapti. Qop-qora chug'urchuq esa daraxt shoxida qolib ketgan xurmoni ishtaha bilan cho'qiyapti.



palaxmon – tosh otish uchun mo'ljallangan qadimiy qurol



1. G'ani nima uchun qushlarni haydamoqchi bo'ldi?
2. Qushlarni siz ham tekinxo'r deb hisoblaysizmi? Fikringizni izohlang.
3. Aziz nega qushlarni insonlarga o'xshatyapti?
4. Qushlar tabiatga qanday foyda keltiradi?
5. Siz ham qushlarga in yasaganmisiz?
6. Qushlarga qanday g'amxo'rlik qilasiz?

Tez aytish.

Qishda qatiq qattiq qotib qoldi.



1. Hikoya qahramonlariga ta'rif bering.
2. Hikoyadan chiqargan xulosangizni ayting.



Bilasizmi, yer yuzida qushlarning 10 000 dan ortiq turi mavjud.

Eng tez uchuvchi qush bu lochindir.

Eng o'tkir nigohli qush burgut ekan.

Eng kichik qush ari kolibri, uning uzunligi tumshug'i va dumini qo'shganda 5 cm ga yetadi.

Kolibri – orqaga uchadigan yagona qush.

Eng katta qush tuyaqush bo'lib, uning balandligi 2 metrdan oshishi mumkin.



Hikoyani o'qib, gapirib berishga tayyorlaning.
“**Qushlarga yordam**” mavzusida reja tuzing.
Tuzgan rejangiz asosida fikringizni izohlang.